

NODIRSHOX AFSHOR VA UNING MARKAZIY OSIYO GEOSIOSIY HAYOTIGA TA'SIRI

Ahmedov Jasurbek

Namangan Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi

2-kurs magistra

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nodirshox Afshor va uning Markaziy Osiyo geosiosiy hayotiga ta'siri va Nodirshox ning Samarqand ,Xiva va Buxoro hududiga yurishlari va bu yurishlarining ahamiyati haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Siyosat, Xorazm, hukumdor, kelat, xazina , sulton.

Nodirshoh afshor, Nodirquli (1688-yil 22-oktabr - 1747-yil 19-iyun) - (1736-1747) Afshorlar sulolasi asoschisi. Kavkazdan Hind daryosigacha bo'lgan hududda imperiya tashkil qilgan. Nodir Xurosonda tug'ilgan. Yoshligida uni Nodirquli deb chaqirishgan. Otasi turkmanlarning afshor urug'iga mansub edi. Nodirquli 18 yoshida Xorazm o'zbeklari tomonidan onasi bilan birga qul qilib haydab ketilgandi. Oradan ko'p o'tmay qullikdan qochib Xurosonga qaytib keldi va o'sha yerlarda mahalliy hokimlar qo'shinida xizmat qila boshladi. Nodirquli ikki marta qaroqchilar to'dasiga sardorlik qilgan. Nodirqulining nomi tez orada mahalliy hukmdorlarga ma'lum bo'lib, uning xizmatidan foydalanishni ko'zlashdi. Bobulbek huzurida xizmatda bo'lgan Nodirquli uning qizini o'g'irlab uylanadi. Bu nikohdan Rizoquli tug'ildi. 1722-yili Isfahonni g'ilzoilar egallashgach, Erondagi afg'onlar hukmronligi boshlandi. Nodirning harakatlaridan xabardor bo'lgan Kelatda yashovchi amakisi uni shaharda qaroqchilik bilan shug'ullanyotgan afg'onlarni quvishga chaqirdi. Nodirquli qisqa muddat ichida shaharda tartib o'rnatdi. Keyin Mashhadga yurish qilib uni seyistonliklardan tortib oldi. Nodirning nomi butun mamlakatga tarqaldi. Shundan so'ng amakisi Nodirga qaroqchilikni tashlab bosqinchilarni mamlakatdan quvish kerakligini tushuntirdi. U shunday degan: "Faqat shu yo'l bilangina qilmishlaringni shoh oldida oqlashing mumkin, aks holda, ertami-kechmi seni sharmandali o'lim kutadi". Nodir 1726-yili 3 ming qo'shin bilan afg'onlarga qarshi kuch to'playptgan yosh shoh Tahmasp II ga qo'shilish uchun Mozandaronga bordi. Nodirquli Eronning ba'zi hududlarini nazorat qilayotgan safaviy shohi Tahmaspdan qilmishlari uchun kechirim so'radi va yengilmas deb tasavvur qilingan afg'onlarni Erondan. quvib chiqarishda yordam berishini aytdi. Shoh uning uzrini qilib xizmatga oldi. Nodir Tahmaspni buyrug'i bilan Astrobodga yurish qildi. Nodir qo'shini Farnobodda turkmanlarni yengib Astrobodni ishg'ol qildi va ular to'plagan barcha xazinani qo'lga kiritdi. Bunga minnatdorlik ramzi sifatida Tahmasp II Nodirga sulton unvonini berdi. 1729-yili

Nodirquli qo'shini Damg'on yaqinida afg'onlarni tor-mor keltirdi va Afg'onistonga surib tashladi. U o'z amakisi Kelat noibini o'ldirib afg'onlarning 7 yillik hukmronligiga barham berdi. Tahmasp Nodirni kuchayib ketishidan xavfsirab harbiy harakatlarni to'xtarishini buyurdi, biroq Nodir shoh saroyiga kelib davlatda yuqori lavozimni talab qildi. Tahmasp II unga Xuroson, Mozandaron, Seyiston va Kermon viloyatlarini topshirdi. Shuningdek, Xurosonda o'z nomidan tanga zarb qilishiga ham ruxsat etdi. Nodirquli birozdan so'ng qo'shinini [Ozarbayjon](#) va Iroqi Arabni egallab turgan turklarga qarshi boshladi. Nodir Armonistonga g'olibona yurdi, lekin Tahmasp harbiy harakatlarga aralashdi va Nodir egallagan barcha yerlarni boy berish bilan birga Eronni bir qismini turklarga topshirishga majbur bo'ldi. Nodir ommada turklar bilan tuzilgan sulhga nafrat uyg'ota oldi. Nodirquli 1732-yili Tahmaspni taxdan ag'darib, o'rniga balog'atga yetmagan o'g'li Abbos III ni taxtga o'tkazdi va o'zini shoh otalig'i deb e'lon qildi. Usmoniy'larga qarshi kurash olib borayotgan Nodir dastlab muvaffaqiyat qozonmadi, lekin 1733-yili yangi kuch to'plab Kavkazda harakat boshladi. 1735-yilgi tinchlik sulhiga ko'ra [Gruziya](#) va Armaniston o'tdi. 1736-yili Sigovushon (hozirgi Sobirobod) shahridagi qurultoyda Nodir shohlikka saylandi, 1740-yili Abbos III ni otasi oldiga jo'natdi va oradan ko'p o'tmay Tahmasp bilan birga o'ldirtirib yubordi. Taxtga chiqqan Nodir sunniylikning hukmdor aqidaligini rasman e'lon qildi. Bu qo'shni sunniy davlatlarni egallashda yordam berishiga ishonardi. Nodir 1737-yili Afg'onistonga bostirib kirdi. Bir yil davomida [Qandahor](#) va boshqa hududlarni bo'ysundirdi, bir qancha afg'on qabilalari Nodirshoh qo'shinini asosini tashkil etadigan bo'ldi.

Qobulni qo'lga kiritgach Nodir Dehliidagi Boburiy hukmdor Muhammadshohdan afg'on qochoqlarini qabul qilmaslikni so'radi. Taklif inobatga olinmadi ga 1738-yili Nodir Hindistonga yurish boshladi. U yo'lida uchragan barcha yerlarni istilo qilib, Dehli yaqinida Karnala nomli joyda Boburiylarni asosiy qo'shinini yengdi. 1739-yili 8-mart kuni Nodirshoh Dehliga kirdi, uch kundan so'ng shaharda qo'zg'olon ko'tarildi. Nodirshoh askarlariga barcha aholini qirib tashlashni, shaharga esa o't qo'yishni buyurdi. Qirg'in tongda boshlanib kun yarmigacha davom etdi. Bir necha kundan so'ng Nodirshohning o'g'li Muhammadshohning qizi o'rtasidagi nikoh dabdabali o'tkazildi. 1739-yil may oyida Nodirshoh katta xazinani qo'lga kiritib Eronga qaytdi. Hindistondagi g'alabadan so'ng Nodirshoh Eron ahlosini 3 yillik soliqlardan ozod qilgandi. 1740-yili Sind viloyatidagi isyonni tinchitib O'rta Osiyoga yurish qildi. Buxoro xoni Abulfayzxon Amudaryogacha bo'lgan hududni Nodirga topshirib, uning jiyaniga qizini berdi. Qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, Xiva xoni Elbarsxon Nodirdan yengildi. 1740-yilning qishida Nodir Dog'istonga yurish boshladi. U yerda qonli janglar boshlandi. Tez orada Darband olindi, biroq Janubiy Dog'istonda Eron qo'shini kutilmagan halokatli mag'lubiyatga uchradi. Qo'shin boshlig'i Ibrohim bilan birga o'n ikki nafar zodagon, shuningdek, 32 ming kishilik lashkardan faqat 8 ming

kishi tirik qoldi. 30 to'pning barchasi yo'qotildi. 1741-yil yozida Nodir 100 ming kishilik qo'shinni olib Dog'istonga yurish boshladi. Uning qo'shini yo'lida uchragan barcha yerlarni g'orat qilardi. Dog'istonning Tabasaron mintaqasida o'g'ir janglar kechdi. Tog'liklar taslim bo'lishni xayoliga ham keltirmasdi. Sentabrda Aymakin darasida Lutf Ali boshliq Eron qo'shini tor-mir keltirildi.

Turchidagda 5 kun davom etgan jangda Nodir qo'shini qaqshatqich mag'lubiyatga uchradi. Nodir orqaga chekina boshladi, Gundrival nomli joyda eroniylar yana yengildi. 1741-yil kuzida Nodir Andalalda mag'lub bo'ldi, 20 mingga yaqin askari o'ldi. 1741-1743- yillardagi Janubiy Dog'istonga yurish Eronga katta zarar keltirdi. 1745-yili Darband yaqinida Eron qo'shini tor-mor etildi. Birozdan so'ng Darband xonligi Eron shohligidan mustaqil bo'lib oldi. Nodir Dog'istonga qarshi yangi yurishga tayyorlana boshladi. 1743-yili Nodir katta o'g'li Rizoqulidan shubhalanib uni ko'r qildi, 50 nafarga yaqin zodagonni ham qatl ettirdi. Shundan so'ng to'xtovsiz qatag'onlar davri boshlandi va Nodir tuzgan davlatning uzoqqa bormasligi oydinlashib qoldi. Usmoniylarga qarshi urush Nodir uchun muvaffaqiyatli kechsi-da, mamlakat ichkarisida norozilik kuchayib borardi. Shoh aholidan kechib yuborilgan 3 yillik soliqni undira boshladi, shuningdek, ashaddiy shialarni ta'qib qilib qatl ettirishga kirishdi. Nodir qo'shinidagi barcha forslarni qirib tashlashga qaror qildi, lekin o'ziga suiqasd uyishtirilib, sarkardalaridan biri Solihbey tomonidan 1747-yili 9-may kuni o'ldirildi. Yangi saylangan Shoh Ali Nodirni uning buyrug'i bilan o'ldirilganini ma'lum qildi. Nodirshoh vafot etgach, u tuzgan imperiya sarkardalari o'rtasida bo'lib olinadi.

Nodirshohning O'rta Osiyoga yurishi – Eron shohi [Nodirshoh](#) boshchiligidagi xarbiy yurish 1737—1740 yillarda O'rta Osiyo xonliklari [Buxoro](#) va [Xivani](#) o'ziga bo'ysundirish maqsadidagi harbiy yurishi. 18-asr o'rtalarida [afshoriylar](#) sardori Nodirshoh Buxoro va Xivani o'ziga bo'ysundira boshlaydi. Birinchi janglar 1737-yilda bo'lib o'tadi: otasi Hindistonda jang qilayotganda Nodirshohning o'g'li va noibi Rizo Quli Mirzo Qarshi jangida g'alaba qozonadi. Forslarning hujumlari [Xiva](#) hukmdori Ilbarsxonni g'azablantiradi. Ilbars o'ch olish bilan tahdid qilganda, Nodirshoh Hindistondagi urushga diqqatini qaratish uchun o'g'liga urushni to'xtatishni buyuradi. Nodirshoh o'z yurtiga g'alaba bilan qaytgach, O'rta Osiyoga yurish uyushtira boshlaydi. Nodirshohning asosiy maqsadi Hindiston yurishidan keyin Xiva va Buxoroni batamom bo'ysundirish edi. Nodirshohning harbiy yurishlaridan keyin butun O'rta Osiyo xonliklari bo'ysundirilgach, Nodirshoh imperiyasi butun tarixidagi eng yirik hududlarni qamrab oladi .

1734-1735-yillarda Xiva hukmdori Ilbarsxon o'zining turkmanlardan iborat katta bo'linmasini [Xurosonga](#) qarshi yurishga jo'natadi, ular Alodog' va Samalgan tog'laridagi kurd qishloqlarini talon-taroj qiladilar, ammo keyin Nodirshoh qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchraydilar. [Nodirshohning](#) o'g'li, imperiya noibi Rizo

Quli Mirzo Afshor avvalroq Balx va Andxo‘y hukmdorlarini o‘ziga bo‘ysundirib, keyin esa [Buxoroga](#) qarshi yurish qiladi. Buxoro hukmdori [Abulfeyzxon](#) o‘z qo‘shinlari bilan [Movarounnahr](#)dan yo‘lga chiqqan Ilbars xonga yordam so‘rab murojaat qiladi. 1738- yilda Ilbarsxon Xurosonga bostirib kirish niyatida edi, lekin Abivardan janubdagi bir qancha qishloqlarni talon-taroj qilib, o‘z yerlariga qaytib kelgan^[1]. Nodirshoh mo‘g‘ullar istilosi natijasida O‘rta Osiyodan Ozarbayjonga ko‘chib kelgan turkman afshor qabilasining kirkli urug‘idan bo‘lgan [qizilbosh](#)^{[2][3][4][5][6][7]} edi. Ilbarsxoning Xuroson shimoliga bostirib kirayotgan bir paytda Nodirshoh [Turkistonga](#) bostirib kirish rejasini ishlab chiqayotgan edi. Buning uchun avval [Amudaryo](#) ustidan ko‘prik qurish kerak edi, uning kengligi ikki tuya tortadigan aravadan o‘tishi lozim bo‘lgan. Shunday qilib ko‘prik qurilishi 45 kun ichida nihoyasiga yetadi va Nodirshoh o‘z qo‘shinlariga daryoning ikki qirg‘og‘ida ikkitadan istehkom qurishni buyurib, ularning har biriga 5000 nafardan askar joylashtiradi. Ana shu tayyorgarliklardan so‘ng Nodirshoh qo‘mondonligidagi qo‘shin askarlarning yurishdan charchaganiga qaramay, shaharga hujum qilib, Buxoro tomon harakatlana boshlaydi. Nodirshoh o‘z qo‘shinini shunday joylashtirdi: o‘ng qanot, chap, markaz, artilleriya, orqa qo‘riqchi va pistirma polki, har bir pozitsiyaning o‘z qo‘mondoni bor edi. Nodirshoh qo‘shinlari to‘p, minomiyot, gaubitsa va aylanma multiqlar bilan qurollangan edi. O‘zbeklar hech qachon bunday qurollar bilan shug‘ullanmagani uchun sarosimaga tushib qolishadi hamda ko‘pchiligi jangda xalok bo‘lishadi yoki qochib ketishadi. Jangdan so‘ng 30 ming o‘zbek askari fors qo‘shini tarkibiga kiritiladi. Nodirshoh Buxoroni egallagandan so‘ng Xiva xonligiga qarshi yurishni boshlaydi hamda Xiva xonligidan bo‘ysunishni talab qilib, Ilbarsxonga elchi yuboradi. Ikki nafari shayx bo‘lgan elchilar Ilbarsning buyrug‘i bilan qatl etilgan. Keyin Xorazmning janubiy chegaralari yaqinidagi [Pitnak](#) jangida Nodirshoh Xiva qo‘shinlarini mag‘lub etadi. Navbatdagi jangda Nodirshoh 30 ming o‘zbek va turkman otliq qo‘shini bo‘lgan Ilbarsxon qo‘shini bilan yuzma-yuz keladi. Keyingi jangda Nodirshoh qo‘shini Amudaryodan o‘tib, Ilbarsxon qo‘shinlari tomon yura boshlaydi. Qisqa va qonli janglardan so‘ng xivaliklar ikkilanib qolishadi. Ilbarsxon ko‘p marta qo‘shinlari safini tiklab, qarshi hujumlarga o‘tmoqchi bo‘ldi, lekin har safar mag‘lubiyatga uchraydi va nihoyat mag‘lubiyatini tan olishga majbur bo‘ladi. Xonqa shahrida qamal qilingan Ilbarsxon Nodirshohga taslim bo‘ladi, hamda o‘zining yigirma nafar amiri bilan birga qatl etilgan (ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra ular tiriklayin ko‘milgan). Shoh bu qatlni elchilar – Juybariy shayxlarining o‘ldirilishi uchun qasos deb biladi^[1].

Nodirshoh harbiy yurish orqali markaziy osiyo mintaqasida o‘z nufuziga ega bo‘ladi. Biroq, Nodirshoh ortga qaytib ketganidan ko‘p o‘tmay, mintaqada yangi afshoriy hokimiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi hamda qo‘shin nazoratini qayta qo‘lga

kiritish uchun qaytishga majbur bo‘ladi. Qo‘zg‘olon bostiriladi, Shunday qilib Xorazm 1747-yil vafotigacha Nodirshoh hukmronligida qoladi.

Nodirshoh qo‘shinlari [1740-yilda Samarqandga](#) hujum qildi. Bu davrga kelib Buxoro xonligi afshorlarga qisman qaram edi. Amir Temurga ixlosi baland bo‘lgan Nodirshoh uchun Samarqand ramziy ma‘noga ega edi. Keyinchalik, Nodirshoh Samarqand bo‘ysundirilgach, [Xorazm xonligi](#) tomon harakat qildi, chunki Elbarsxon Buxoro xonligining ittifoqchisi bo‘lib, Nodirshoh hokimiyati xavfsizligiga tahdid solardi^[1].

Nodirshoh Samarqandni juda oson egalladi. Shahar qo‘lga kiritilganidan biroz vaqt o‘tgach, Nodirshohga Samarqand shimoliga ko‘p sonli samarqandlik qo‘zg‘olonchilar va Buxoro va Qo‘qondan kelgan qo‘shin to‘plangani haqida xabar qilinadi. U yerga Nodirshohning ishonchli sarkardalaridan biri Lutfalixon boshchiligida 20 ming kishilik qo‘shin yuboriladi. Yigirma minglik armiya yaqinlashayotganidan xabar topgan qo‘zg‘olonchilar to‘qnashuvdan qochib, shimolga chekinishdi. Ammo Lutfalixon qo‘shini kutilmaganda ularga yetib olgan va qo‘zg‘olonchilarni mag‘lub etgan^[2]. Darvozalari Nodirshoh tomonidan Eronga olib ketilgan [Bibixonim masjidi](#). Rivoyatlarga ko‘ra, Nodirshoh Samarqanddan Eronga [Bibixonim masjidining oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari](#) va Samarqandning o‘sha paytdagi beki (hukmdori) [Abusamxon](#) edi. Nodirshoh Samarqandni juda oson egallab oldi, chunki uning qo‘shini yaxshi qurollangan va ta‘minlangan edi, jumladan, o‘sha davrda Yevropada ham qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qotar qurollarga ega edi. Buxoro davlati qo‘shini soni Nodirshoh qo‘shinlari sonidan bir necha barobar ko‘p bo‘lsa-da, eronliklarning kuchli zambarak o‘qlariga to‘liq qarshilik ko‘rsata olmadi va javob qaytara olmadi. Nodirshoh va uning qo‘shinlari Samarqandga kelishidan sal avval Abusamxon Qo‘qon xonligi xoni oldiga elchilar yuborib, undan yordam so‘ragandi, ammo eronliklar tezda Samarqandga yetib kelib, Qo‘qon xonligidan yordam yetib kelmasidan avval shaharni egallab olishdi. Samarqand qo‘lga kiritilgach, [Abusamxon](#) va uning yaqinlari Nodirshoh buyrug‘i bilan qatl etiladi. Samarqandni bosib olishda Nodirshoh qo‘shinlari ishlatgan zambarak Nodirshoh Samarqandni juda oson egalladi. Shahar qo‘lga kiritilganidan biroz vaqt o‘tgach, Nodirshohga Samarqand shimoliga ko‘p sonli samarqandlik qo‘zg‘olonchilar va Buxoro va Qo‘qondan kelgan qo‘shin to‘plangani haqida xabar qilinadi. U yerga Nodirshohning ishonchli sarkardalaridan biri Lutfalixon boshchiligida 20 ming kishilik qo‘shin yuboriladi. Yigirma minglik armiya yaqinlashayotganidan xabar topgan qo‘zg‘olonchilar to‘qnashuvdan qochib, shimolga chekinishdi. Ammo [Lutfalixon](#) qo‘shini kutilmaganda ularga yetib olgan va qo‘zg‘olonchilarni mag‘lub etgan [Samarqanddagi](#) yakuniy va hal qiluvchi g‘alabadan so‘ng shahar Nodirshoh qo‘shinlari tomonidan talon-toroj qilindi va vayron qilindi. Yuzlab samarqandliklar o‘z yurtdoshlarining eronliklarga qarshi kurashganligi uchun

jazo sifatida o'ldirildi. Samarqandning bir qancha masjid va madrasalari talon-toroj qilindi. Ismoil Safaviydan farqli o'laroq, Nodirshoh Movarounnahrda shialikni keng targ'ib qilmagan Nodirshoh Samarqandda mashhur sarkarda Amir Temurning Go'ri amir maqbarasidagi qabridagi nefritdan yasalgan qabr toshi haqida eshitgan edi. Nodirshoh Lutfalixonga bu nefrit qabr toshini olib tashlashni va Xurosondagi shialarning muqaddas shahri Mashhadga yuborishni buyurdi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u Mashhaddagi masjidlardan birini ana shu nefrit tosh bilan bezatmoqchi bo'lgan, boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Nodirshohning o'zi uchun nefritdan yasalgan qabr tosh qo'yishni rejalashtirilgan. Eronda o'sha paytda Nodirshoh qabrini tayyorlash ishlari qizg'in ketayotgan edi, uning qurilishini shaxsan Nodirshohning o'zi nazorat qilgan. Xususan, [Ozarbayjonning](#) shimoli-g'arbiy viloyatidan katta miqdorda marmar keltirilib, [Mashhadga](#) butun Eron va uning atrofidagi davlatlardan 3 mingga yaqin hunarmand ko'chirilib keltirilgandi^[4]. Nodirshoh Samarqanddan Eronga [Bibixonim masjidining oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari](#) va boshqa [qimmatbaho metallar](#) qotishmasidan quyma qo'sh eshiklarini, shuningdek, qator me'morlar, olimlar, shoirlar va Samarqand hunarmandlarini olib ketgan.

boshqa [qimmatbaho metallar](#) qotishmasidan quyma qo'sh eshiklarini, shuningdek, qator me'morlar, olimlar, shoirlar va Samarqand hunarmandlarini olib ketgan^[3].

1741-yil yanvarda Nodirshoh Mashhadga qaytib keldi. Yo'lda u qo'shinlari bilan Qoraqum cho'li bilan o'ralgan Marv shahri yaqinida tunash uchun to'xtadi. Kechasi Nodirshoh dahshatli tush ko'rdi. Tushida u chuqur va qorong'i tubsizlikka uchayotganga o'xshardi, lekin tasodifan toshga yopishib oldi va tubsizlik ustidan osilib qoldi. Qo'rquvdan boshini ko'tarib, tepasida o'ng qo'lini ko'targan Amir Temurning sharpasini ko'rdi. [Amir Temur](#) unga g'azab bilan qarab turardi. Nodirshoh qo'rquvdan uyg'onib ketdi. U darhol chodiriga bir munajjimni chaqirdi va tushini ta'bir qilishni buyurdi. Keksa munajjim uni tinglab, qo'li bilan uzun soqolini silab, go'yo o'yga cho'mgandek bir muddat jim turdi va Nodirshohning aql bovar qilmas va shafqatsiz fe'l-atvorini bilib, unga javob berdi: „Yerda sizning qilichingizdan begunoh to'kilgan qonlar juda ko'p. Siz hatto yaqinlaringiz uchun ham shafqatsizsiz. Qolaversa, sizlar ulug' Amir Temurning mangu oromini buzdingiz. Uning ruhi sizni doimo ta'qib qiladi. Bu so'zlari uchun Nodirshoh jallodni chaqirmoqchi bo'ldi, lekin munajjim uning o'ylarini oldindan sezgandek: *“Men allaqachon qariganman, o'limdan qo'rqmayman. Meni qatl qilish bilan qalbingizdan gunohning og'ir yukini olib tashlamaysiz”*. Bu gaplar hukmdorni fikridan qaytardi. Va u nima qilishni so'radi. Munajjim javob berdi: „Ey ulug' shoh, Temur toshini joyiga qaytarishga buyruq bering. Bu sizning qalbingizdan katta gunohni ketkazadi“. Ketishdan oldin u qo'shimcha qildi: *“Yaqinlaringizdan ehtiyot bo'ling”*. Ko'p o'tmay tong otdi va chodirdagilar uyg'ondi. Nodirshoh [nefrit](#) qabr toshini ko'zdan kechirib, Temurning ruhini

tinchlantirish uchun fотиha o‘qidi va nefrit qabr toshini Samarqandga qaytarib olib, o‘z joyiga qo‘yishni buyurdi. Ikki soatdan so‘ng qo‘shinlar janubga, Mashhadga qarab harakatlanishdi^[5]. Go‘ri Amirdagi Amir temurning nefrit qabrtoshi Nodirshoh 1747-yil iyun oyida, bu voqeadan olti yil o‘tib o‘ldirildi. Bungacha unga bir necha bor suiqaqd uyushtirilgan va shu sababli u haddan tashqari shubhalanadigan bo‘lib qolgandi. U bularning barchasini Amir Temurning la‘nati va g‘azabi bilan bog‘lardi. Suiqaqd urinishlarining birida Uning o‘g‘li [Rizoquli](#) ko‘r bo‘lib qoldi^[6]. Uning o‘g‘lini ko‘r qilishda ishtirok etgan 50 nafar zodagon qatl etildi va shu vaqtdan boshlab uzluksiz qatl qilish davri boshlandi. U eng sodiq xizmatkorlarini ham qatl qildi. Ko‘plab begunoh odamlar qiynoqlar ostida o‘ldi. Ular unga qarshi fitna uyushtira boshladilar. Nodirshoh tunda Xurosondagi chodirida o‘ldirilgan. [Qojar](#) va [Afshor](#) qabilasi zodagonlari uning boshini Hirotga jiyani Aliqulixonga yuborishgan^[7].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afshor. NEU, Tashkent, 2000-2005.
2. La stratégie militaire, les campagnes et les batailles de Nâder Shâh — La Revue de Téhéran — Iran".
3. Rokovaya alchnost Nodirshaxa
4. Nadir-shax. Istoriya pravleniya
5. www.ziyo.net

